

Mamlakatimiz jadal rivojlanishi uchun bizga “to‘rtinchi sanoat inqilobi” kasblari juda muhimligi qayd etildi



Uzbekiston Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI

Shu munosabat bilan yoshlarni fizika, kimyo, biologiya, texnologiya, muhandislik, matematika (STEM) bilan bog‘liq kasblarga qiziqishini oshirish uchun yangi tizim joriy qilinadi.

Yangi o‘quv yilidan oliyohlar qoshidagi jami 73 ta akademik litseyda tajriba tarzida “Xalqaro bakalavriat” va “A-level” dasturlari joriy qilinadi

Bu dasturlar asosida sertifikat olgan o‘quvchilar o’sha oliyohga imtihonsiz, kontrakt asosida qabul qilinadi.

Nogironligi bo‘lgan yoshlarga chet tilidan imtihon topshirish yengillashadi

Jumladan, chet tili bo‘yicha milliy sertifikat (CEFR) olishda qo‘lda yozish imkoniyati

bo'Imaganlarga kompyuterda imtihon topshirish sharoiti yaratiladi.

□□□

Endilikda oliygochlarning birinchi va ikkinchi kurslaridagi fanlar texnikumlar bilan uyg'unlashadi. Texnikumning birinchi va ikkinchi yilini yaxshi o'qigan yoshlarga xalqaro klassifikatorning tegishli darajasiga mos keluvchi diplom beriladi

Ularga oliygohni ikkinchi yoki uchinchi kursidan o'qishni kontrakt asosida davom ettirish imkoniyati beriladi. Kasbi bo'yicha malaka darajasi va ikki yillik staji bor yoshlar korxona tavsiyasi bilan oliygochlarga kontrakt asosida qabul qilinadi.

□□□

Oliygoh, vazirlik va korxonalarga tegishli laboratoriyalarning yagona onlayn platformasi yaratiladi. Yosh olimlar tadqiqotlari uchun kerak bo'lgan uskuna, butlovchi qism va kimyoviy vositalar bojdan ozod qilinadi